

## AYIRMACHILIK --- MILLAT ZAVOLI

**Abdulla Maxmatqulov**

Guliston davlat universiteti Sirtqi bo'lim Filologiya  
va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 4-bosqich talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7710387>

Qadimdan buyuk davlatlarning hukmdorlari orasida “Bo'lib tashla --- hukmronlik qil!” degan ibora keng qo'llanilgan. Ko'plab hukmdorlar, bosqinchilar, siyosatchilar mana shu iboraga amal qilib kelishgan. Xususan, ular ko'z tikishgan davlatlarining viloyatlari, xalqlari orasida nifoq chiqarib, ularni bo'lib tashlashgan va birin-ketin oson egallashgan. Hamda ularni oson boshqarishgan. Masalan, O'rta Osiyo xonliklariga ko'z tikkan Chor Rossiyasi Imperatorlari, avval, xonliklar ahvolini yaxshilab o'rgangan. Shusiz ham o'zaro nifoqqa borib turgan xonliklar orasiga o'z josuslarini qo'yib, ular orasida turli kelishmovchiliklar keltirib chiqargan. Bu ham yetmaganday xalqqa ko'plab soxta va'dalar berib ularni xonlar va amirlarga qarshi qo'yishgan. Oqibatda “yosh buxoroliklar”, “yosh xivaliklar” kabi tashkilotlar bolshevik hukumatining soxta va'dalariga ishonib,” Yangi davlat quramiz!.. To'q, farovon yashaymiz” --- deb, xonlarni taxtdan ag'darishgan. Ular maqsadlariga erishdimi?! Yo'q!.. Chunki, farovonlikka qo'zg'olonlar va to'ntarishlar bilan erishib bo'lmaydi. Bunga tarix guvoh... Farovon va erkin jamiyatga faqatgina ilm, ma'rifat va zamon bilan hamfikir yashash ila erishiladi. Yana bir misol, bolshevik hukumati O'rta Osiyodagi qo'rboshilar boshchiligidagi ona Vatan Turkistonni dushmandan tozalash uchun tuzilgan turk xalqlarining milliy ozodlik harakatini, Turkiston birligi g'oyasini tugatish uchun 1924-yilda qonxo'r Stalin boshchiligida milliy-hududiy chegaralanish g'oyasini o'ylab topishadi. Va bu zamin O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston kabi milliy hududlarga bo'lib tashlanadi. Oqibatda Turkiston degan yagona Vatan yo'q bo'ladi. Endi u uchun kurashishning ham keragi bo'lmay qoladi. Qarabsizki, Sovet hukumati maydalangan xalqlarni osongina boshqara boshlaydi. Qozoq cho'llarida 3 mln qozoqni ochdan o'ldiradi. Turkiy xalqlar ichidagi ziyoli qatlamni tag-tubi bilan yo'qotishga kirishadi. “O'zbek ishi”, “Paxta ishi” degan qirg'in mashinalarini o'ylab topib o'zbeklarning yostig'ini quritadi. Tub yer aholisini ruslashtirish siyosatini olib boradi. Qizig'i shundaki, endi hech kim zolimlarga ochiqcha qarshi chiqishga yurak betlay olmay qoladi. Chunki o'lka xalqlari parchalab tashlangandi. Birlashish esa amrimahol edi. Qudratli davlatlarning hukumatlari hattoki, bugungi kunda ham bu xalqlarning birlashishini istamaydi. Sababi, bu xalqlar birlashsa qanday qudratga ega bo'lishini juda yaxshi anglaydi.



Turkiy xalqlarning birligi hozirgi kunda qanday zarur bo'lsa o'z davlatlarimizda xalqlarimizning birligini saqlash ham asosiy masalaga aylandi. Hozirgi davrda mafkuraviy qurollar bilan xalqlarning birligiga rahna solish kuchaydi. Bugun dushmanlar bitta emas mingtaga aylandi. Ular bizning tabiiy boyliklarimizga, milliy resurslarimizga ko'z olaytira boshladi. Ularga ega bo'lish uchun esa hech narsadan toyishmayapdi. Misol uchun Iroq va Suriyaning neftidan tekin foydalanishni istaganlar bu mamlakatlarni qay ahvolga solishganini ko'rib turibmiz. Afg'oniston, Livan, Falastin kabi mamlakatlar ham shu kabi ochko'zlarning fitnasiga duchor bo'lgan. Xo'sh, ular bizni ayab o'tirishadi deysizmi?! Yo'q, aslo ayashmaydi... Isbot uchun o'tgan yaqin oylarda sodir bo'lgan "qoraqalpoq" voqealarini eslang. Qadimdan bir makonda, bir oila bo'lib yashab kelgan ikki qardosh xalqni bo'lib tashlashni istashdi. Xo'sh, fitnagarlar bu istaklariga erishganda nima bo'lardi?! Mamlakat zaiflashardi... Tashqi kuchlarning qurboniga aylanardi... Qullik, boshboshdoqlik, o'zaro urushlar, fitnalar, ocharchilik, qotillik va qabohat maydoniga aylanardi...

Mana shunday jarliklarga tushib qolmaslik uchun ham bugun o'zbekning birlashuvi suv va havoday zarur. Birlashish deganda shuni nazarda tutamanki, o'zaro hamjihatlikda yashash, din va madaniyatni birgalikda asrash, har kim Vatan kelajagi uchun nimadir qilishi; jamiyatda, oilada, mamalakat siyosiy hayotida faol ishtirok etish, har kimni, avvalo, insonligi uchun hurmat qilish, o'qish, izlanish, harakatdan to'xatamaslik kabi bugun va kelajak uchun o'ta muhim masalalarda doimo ilg'or bo'lish har birimizning burchimiz ekanligini anglab yetishimiz eng katta yutug'imiz bo'lardi.

Ikkinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchragan, ikkita shahriga atom bombasi tushgan, iqtisodiy, siyosiy tanazzulga uchragan Yaponiya davlati bugun qanday qudratga ega ekanligini barchamiz juda yaxshi bilamiz. Xo'sh, Yaponiya bu darajaga qanday chiqa oldi ekan?! Buning sababi, albatta, yapon xalqining birlasha olganidadir. Hatto, yapon ayollari o'z ixtiyori bilan bisotidagi oxirgi tilla taqinchog'igacha mamlakat xazinasiga olib borib topshirishgan ekan!.. Shuning uchun ham xalqlar orasida "Vatanparvarlikni yaponidan o'rgan!" --- degan maqolning paydo bo'lgani bejizga emas. "Yapon mo'jizasi", "Koreys mo'jizasi" degan mo'jizalar ham xalq birdamligining ramzidir.

Bugun mamlakatimizni oralab turli viloyat va shaharlarda bo'lsangiz ba'zi bir ko'ngilni xira qiladigan voqealarga duch kelasiz. Ayniqsa, poytaxt Toshkentda. "Sen vodiylilik, sen vohalik, sen xorazmlik, sen toshkentlik, sen shaharlik, sen qishloqi, sen kambag'al, sen boy" --- deb, odamlarimiz orasida bo'layotgan arzimaganiday ko'rinadigan voqealar oqibatda juda ayanchli holatlarga sabab



bo'lishi mumkinligini xalqimiz anglab yetishi kerak. Axir, avvalo, hammamiz O'zbekistonlikmiz! Bir mamlakatda yashaymiz! Shu yurtning kelajagiga hammamiz birday dahldor ekanimizni qachon anglab yetamiz?! Mamlakatimizni parchalab tashlashni istagan yog'iyarning qo'g'irchog'iga aylanmaylik! Agar aytish joiz bo'lsa, shuni aytib o'tishim kerakki, o'sha "Sen u yerlik, sen bu yerlik", --- deb xalq orasida ijtimoiy ajralishga sabab bo'layotganlar bugun haqiqiy xalq dushmanlaridir!.. Ayni o'shalar mamlakatni birinchi bo'lib sotib ketuvchi sotqinlardir.

O'tmishda xalqlarning birdamligi taraqqiyot uchun qanchalik muhim bo'lsa, bugun ham shunchalik ahamiyatga ega. Bugun fuqarolarimiz anglab yetishi kerakki, biz orzu qilgan kelajakka, birdamlik orqaligina yetishamiz. Donishmand xalqimiz orasida mavjud bo'lgan " Bo'linganni bo'ri yer!" --- maqolining zamirida qanchalik chuqur ma'nolar aks etganini anglab yeta olishimiz zarur... Bizning kelajagamiz faqatgina ilmda, dinda, tilda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotda, umuman olganda barcha sohalarda birlashish evazigagina bo'ladi. Bo'lmasa, oxirimiz xorlik va zorlik girdobiga tushib qolishi kunday a'yon va ravshandir!.. Birlashaylik!.. Birlashaylik... Birlashaylik... Xalq bo'l, olomon!.. Xalq bo'l, elim!..

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Millatchilik>

